



MALAKA OSHIRISH - SAMARADORLIK OMILI

Musurmonova Mariya Burxonovna,

Jizzax viloyati pedagogik mahorat

markazi yetakchi mutaxassisi

mariyaburxanovna@gmail.com 97/521-19-52

Annotatsiya: Maqolada pedagog xodimlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning samarali tizimini yaratish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, 4K, 5E modeli kabi xorijiy tajribalarni amalda qo'llash, kengayib ketayotgan qudratli axborot oqimi, pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarining bugungi kun talabi darajasida bo'lismeni ta'minlashda nimalarga e'tibor qaratish, tinglovchilarni kreativ fikrlashga undash, ijodiy fikrlash ko'nikma va malakalarini hosil qilish, malaka oshirishga ehtiyoj sezish, malaka oshirishning haqiqiy sifat va samaradorligini oshirish va boshqa masalalar haqida batafsil fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: interfaol usullar, 4K, 5E modeli, axborot oqimi, kreativ fikrlash, sifat va samaradorlik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan farmonlar, bular asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qator qarorlar, Maktagacha va maktab ta'limi vazirligining buyruqlari islohotlar uchun ham huquqiy, ham moddiy asos yaratdi. Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 13-moddasida "Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi", deb ta'kidlangan.

Bu hujjalarning maktabgacha va maktab ta'limi xodimlari oldiga ijtimoiy buyurtma sifatida qator talablarni qo'yadi.

Umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini malakali kadrlar bilan ta'minlash, pedagoglarning tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish ham shu talablar jumlasidandir.

Pedagog xodimlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning samarali tizimini yaratish bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat Milliy instituti hamda viloyatlar Pedagogik mahorat markazlari tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Respublikamizdagi maktabgacha va maktab ta'limi rahbar va pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, pedagogik mahorat markazlarining o'quv-moddiy negizini mustahkamlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishning eng ilg'or, samarali shakl va usullarini joriy etish, darslar mazmunini zamonaviylashtirish, xorijiy mutaxassislarni jalg'ish etish choralarini ko'rildi va jarayonlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda davlatimiz tomonidan ta'limni rivojlantirish yuzasidan umumiyoq o'rta hamda maktabgacha ta'limning yangi o'quv reja, dasturlari ishlab chiqildi, darsliklarning yangi avlodni yaratildi. Lekin ta'lim standartlari, davlat talablari, dasturlar, darsliklar qancha takomillashtirilmasin, o'quv jarayoni to'liq kompyuterlashtirilmasin, xorij tajribalari amaliyotga joriy etilmasin, eng ilg'or pedagogik texnologiyalar, ilmiy-metodik ishlanmalar, qo'llanmalar, tavsiyanomalar yaratilmamasin, baribir ta'lim jarayoni uni bevosita olib boruvchisi -pedagogning kasbiy tayyorgarligi, metodik mahorati va malakasiga bog'liq bo'lib qolaveradi.



Shu bois o'quv jarayonini yangi mezonlar asosida tashkil etish yuzasidan malaka oshirishning respublikamizdagi har bir tuman (shahar) hududlarigacha yetib boradigan va barcha maktablardagi hamda maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi pedagog xodimlar uchun qulaylik yaratadigan tizim tashkil qilindi. Unga ko'ra, endilikda tuman (shahar)lardan tanlab olingen tayanch maktablarda "Kasbiy rivojlanish kuni" va barcha maktablarda "Kasbiy rivojlanish soati", Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligining 2024-yil 8-noyabrdagi 362-sonli bo'yrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida esa maktabgacha ta'lif tashkilotlarida "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" tadbirlari tashkil etilmoqda.

Yangiliklarni tezkor usulda yetkazish uchun ayniqsa, malaka oshirishning bevosita ishdan ajralmagan holda maktabda, maktabgacha ta'lif tashkilotlarida tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'lifi bo'limlarida doimiy harakatdagi seminar-treninglar, qisqa muddatli kurslar shaklida o'tkazish ham eng dolzarb masaladir. Shu bilan birga o'qitishning interfaol usullari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, 4K, 5E modeli kabi xorijiy tajribalarni amalda qo'llash, ular asosida tajriba-sinov olib borish, metodik ishlanma, ma'ruza, maqola yozish hamda yosh pedagoglar uchun tajribali mutaxassisning murabbiyligi shakllaridan foydalanish ham ta'lif-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur hisoblanadi.

Hozirgi paytdagi ma'lumotlar bankining jadal suratlar bilan kengayishi, barcha sohalar bo'yicha axborotlarning ko'payishi ham pedagog kadrlarning malakasini oshirish jarayonini takomillashtirishni talab qilmoqda.

Tinmay kattalashib boraveradigan miqdordagi bilimlarni o'zlashtirish yoki kengayib ketayotgan qudratli axborot oqimida loaqal mavjud ehtiyojlarni qondirishga yetadigan darajada bilim olish va malakasini oshirishni ta'minlash malaka oshirish tizimining asosiy muammosi bo'lib kelmoqda. Bu masalaning yechimi malaka oshirish kurs tinglovchilariga o'qitilayotgan har bir fanning o'quv materiallaridagi, birinchi navbatda malaka oshirish kursi tinglovchilarining malakaviy ishlarini bajarishdagi ijodiy fikrlashini rivojlantirishdan iborat. Ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar va malakaviy ishlar bo'yicha beriladigan topshiriqlar malaka oshirish kurs tinglovchilarini kreativ fikrlashga undaydigan, masala yechimini tafakkur asosida hal qilishga chorlaydigan bo'lishi muhimdir. Bundan ko'rindiki, yangi narsalarni yaratish, yangi jarayonlarni yuzaga keltirish uchun malaka oshirayotgan pedagog xodimlarda ijobiy fikrlash ko'nikma va malakalarini hosil qilish lozim bo'ladi. Busiz malaka oshirish tizimining rivojlanishini ta'minlash mumkin emas.

Shuning uchun ham malaka oshirish tizimini takomillashtirish, malaka oshirish kurslarining o'quv-mavzu reja va o'quv dasturlarini pedagog xodimlar talab va ehtiyojlariga moslashtirish, faqat 5 yilda bir marta malaka oshirish bilan chegaralanib qolmasdan, doimiy ravishda ularda yangiliklarga ehtiyoj tug'dirish lozim bo'ladi. Qachonki, pedagog o'zining ish faoliyatida ta'lif-tarbiya jarayonida uchragan qiyinchiliklar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar, muammolarni tugatish borasida izlansa, yangiliklardan xabardor bo'lish maqsadida malaka oshirishga ehtiyoj sezsagina, malaka oshirishning samarasi natijali bo'ladi.

Pedagoglarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlarining bugungi kun talabi darajasida bo'lishini ta'minlashda nimalarga e'tibor qaratish lozim? Eng avvalo, har bir pedagogik jamoa o'zining kadrlar reja -dasturiga ega bo'lishi kerak, ya'ni ta'lif muassasasidagi pedagoglarga bo'lgan muhtojlikni aniqlash, ularning pedagogik diagnostikasini maxsus so'rovnomlar asosida o'tkazish, olingen natijalarni tahlil qilish asosida malaka oshirishning dolzarb vazifalarini belgilash (pedagogning nazariy bilimlari, metodik mahorati, izlanuvchanligi, zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalarni joriy qilishdagi yetishmovchiliklarni aniqlab, malaka oshirish shakllarini belgilash);

-har bir xodim uchun malaka oshirish xaritasi yuritish (unda qachon, qayerda, qanday shaklda va qancha muddatda malaka oshirishga borishi ko'rsatilishi kerak);



-pedagog xodimlar tarkibidan mutaxassis bo'lmagan pedagoglarni aniqlab, ularni ikkinchi mutaxassislik olishlari uchun (bunday holatlar asosan olis hududlarda uchrab turadi) Pedagogik mahorat markazlariga ro'yxatlarini berish katta ahamiyatga ega.

Malaka oshirishning haqiqiy sifat va samaradorligi esa har bir rahbar va xodimning malaka oshirish kursidan keyingi ish samaradorligi qanchalik ortishi bilan belgilanadi. Bu yo'nalishda esa navbatdagi dolzarb masala –tuman (shahar) Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari hamda ta'lim muassasalari tomonidan pedagog xodimlarning malaka oshirish kursidan keyingi faoliyat samaradorligi monitoringini olib borish hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bu ishlardan ko'zlangan asosiy maqsad yuqori malakali pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashdan iborat. Bu esa hukumat qarorlarida ko'zda tutilgan vazifalarni bajarish yo'lida tinimsiz izlanishlar va amaliy ishlar olib borishni talab etadi. Sohadagi o'zgarishlar, islohat va imkoniyatlarning barchasi zamirida bitta maqsad yotadi, u ham bo'lsa yosh avlodga zamon talabi darajasida bilim berishdir. Buning uchun pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishda mavjud imkoniyatlardan keng foydalangan holda mashg'ulotlar sifat va samaradorlik darajasini yuqori pog'onalarga ko'tarish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-sonli Qonuni
2. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari uchun "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida" 2024-yil 7-avgustdaggi 246-son buyrug'i.
3. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida malaka oshirishning "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida" 2024-yil 8-noyabrdagi 362-sonli bo'yrug'i.